

Mamlakat Oly Ta'lim Muassasalarini Xalqaro Darajada Innovatsion Faoliyatining Tashkiliy-Iqtisodiy Tahlili

Raximova Umidaxon Abduraimovna¹

Annotatsiya: Ta'lim tizimi har bir mamlakarning rivojlanishida ijtimoiy jihatdan eng kuchli qurol sanaladi. Ta'limga bo'lgan e'tiborning yuqoriligidan kelib chiqqan holda bugungi kunga kelib, ko'plab bilimlar iqtisodiyotiga tegishli bo'lgan ilmiy-nazariy yondoshuvlarni korxonalarga tadbiq etish ommalashib borayotganligi bilan o'zining ahamiyatini namoyon etadi. Ta'lim tiziminining rivojlanishi uchun rivojlangan mamlakatlar yanada sifatlari ta'lim faoliyatini olib borishga intiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ta'lim tiziminining yanda yuksalishi uchun ekperimental strategiyalarni qo'llashga moyilligi kuchli sanaladi. Qoloq mamlakatlar esa shunchaki ta'lim tizimini isloh etishga urinishadi. Har yili har bir mamlakatning xalqaro olib boriladigan kuzatishlarga asosan reyting natijalari e'lon qilinadi. Maqolada shu kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyatni baholash, QS reytingi, OTMni rivolantirish, raqamli ta'limni baholash.

Oliy ta'lim tizimining sifatini aniqlash murakkab vazifa, ammo e'tiborga olish kerak bo'lgan hal qiluvchi omillardan biri bu uning xalqaro reytingidir. Ta'limning globallashuvi ortib borayotgani sababli, institutlar endi izolyatsiya qilingan ob'ektlar emas va ularning faoliyati global tengdoshlari bilan taqqoslanadi. "QS World University Rankings"², "Times Higher Education World University Rankings"³ kabi xalqaro reytinglar va Shaxxay reytingining "Akademik fanlarning global reytingi"⁴ muassasaning tadqiqot natijalari, o'qitish sifati va global obro'siga har tomonlama baho beradi.

Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) mamlakat taraqqiyoti va farovonligini baholashda hal qiluvchi ko'rsatkichga aylandi. O'rtacha umr ko'rish, ta'lim va daromadlarni o'lchashda an'anaviy qo'llanilishidan tashqari, Inson taraqqiyoti indeksi mamlakat oliy ta'lim tizimini shakllantirishda ham muhim rol o'yaydi. QS World University Rankings va Times Higher Education World University Rankings kabi xalqaro reytinglar ko'pincha HDIni oliy ta'lim muassasalari sifatini baholashning asosiy omili sifatida ko'rib chiqadi.

Inson taraqqiyoti indeksining yuqori balli ko'pincha rivojlangan ta'lim tizimi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida xalqaro talabalar va o'qituvchilarni jalb qiladi. Buning sababi shundaki, inson taraqqiyoti indeksi yuqori ballga ega bo'lgan mamlakatlar odatda yaxshi infratuzilma, resurslar va ijtimoiy barqarorlikka ega bo'lib, sifatlari ta'lim uchun qulay muhit yaratadi. Inson taraqqiyoti indeksi past bo'lgan mamlakatlar sifatlari ta'lim berish uchun ko'pincha kurash olib boradi, bu esa miyaning ketishiga va xalqaro tan olinmasligiga olib keladi. Bu esa inson taraqqiyotiga sarmoya kiritish muhimligini ta'kidlaydi, chunki bu ta'lim sifatiga, natijada mamlakatning iqtisodiy o'sishi va global raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir qiladi. Bundan tashqari, Inson taraqqiyoti indeksi oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturi va tadqiqot yo'nalishiga ham ta'sir qiladi. Inson taraqqiyoti indeksi yuqori ballga ega bo'lgan mamlakatlar innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun muhim bo'lgan fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) kabi sohalardagi tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat beradi. Boshqa tomonidan, inson taraqqiyoti indeksi past bo'lgan mamlakatlar

¹ TATU, Reja va moliya bo'limi boshlig'i

² <https://www.topuniversities.com/qs-world-university-rankings>

³ <https://www.timeshighereducation.com/world>

⁴ <https://www.shanghairanking.com/rankings/gras/>



mahalliy rivojlanish muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi, sog'lijni saqlash va ta'lif kabi sohalarda ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishlari mumkin.

Inson taraqqiyoti indeksi mamlakat oliv ta'lif tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, ta'lif sifatidan tortib tadqiqot yo'nalihi va xalqaro e'tirofga qadar hamma narsaga ta'sir qiladi. Mamlakatlar inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichlarini yaxshilashga harakat qilar ekan, oliv ta'lifda mukammallikni ta'minlovchi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan muhitni yaratish uchun ta'lif, infratuzilma va ijtimoiy barqarorlikka investitsiyalarni ham birinchi o'ringa qo'yishlari kerak. O'zbekistonning ITIdagi o'rnni ta'lifda rivojlanishda qiyosiy darajasini aniqlashim imkoniga ega bo'lamiz (1.-jadval).

1.-jadval O'zbekistonning inson taraqqiyoti indeksiga ko'ra baholanishi⁵

	2018-2019	2019-2020	2021-2022	2023-2024
Inson taraqqiyot indeksi	0,710	0,721	0,727	0,727
Egallagan o'rni	108	106	101	106
Ta'lifning davomiyligi indeksi	0,7	0,7	0,679	0,642
Shundan: Oliy ta'lif davomiyligi	0,3	0,3	0,302	0,277

2018-2019 yillar mobaynida O'zbekistonning egallagan o'rni 108 pog'ona hisoblangan bo'lsa, bunda ITI ko'rsatkichi 0,710 ni tashkil etgan. Shundan ta'lif davomiyligini tahlil etganda 0,7 koeffitsientdan iborat bo'lgan. Aynan shu yillarda oliv ta'lifning davomiyligi yuqorilagani evaziga 0,3 koeffitsientni tashkil etgan. Bu holat kelgusi juflik yillarda, ya'ni 2019-2020 yillarda 2 pog'onaga ko'tarish asosida 106 o'rinni egallahga muvaffaq bo'lgan. Bunda esa ITI bo'yicha 0,721 koeffitsient bilan +0,011 koeffitsient asosida erishilgan. Ta'lif davomiyligi mazkur yillarda 0,7 koeffitsientni tashkil etgan bo'lsa, oliv ta'lif davomiyli 0,3 koeffisientdan iborat bo'lgan. Ya'ni mazkur ko'rsatkichlar oldingi yillarga nisbatan o'zgarmagan. Biroq, oliv ta'lifning davomiyligi juda kichik farq bilan bo'lsada, 2021-2022 yillarda 0,002 koeffitsient ko'proq natijaviylik ko'rsatgan. Bu ta'lifning davomiyligini oldingi yillarga nisbatan yuqoriq bo'lishiga xizmat qilmagan bo'lsada, ITI bo'yicha indeksial baholanish 0,727 koeffitsientni tashkil etgan. Kelgusi yillarga ta'lifning va uning tarkibida oliv ta'lifning davomiyligi pastlagani hisobiga 101-'rindan 106-o'ringa qayta pog'onaviy joylashuvni belgilab berdi. ITI ko'rsatkichi o'tgan yilga nisbatan o'zgarmagan bo'lsada, ta'lifning davomiyligiga e'tibor talab qilinishi yaqqol ajralib qoldi. O'zbekistonda ITI ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida ta'lif va innovatsiyalarga ustuvor ahamiyat berish zarurdir. Mamlakat ta'lif tizimi muddatli sifat va tuzilma bo'yicha muammolarga duch kelmoqda. Ta'lif davomiyligi va uning oliv ta'lif tuzilmasi qisqarishi tashvishli tendentsiya bo'lib, uni siyosat aralashuvi va investitsiyalar orqali hal qilishni taqozo etishini anglatadi. Bundan tashqari, O'zbekiston o'zining innovatsion ekotizimini rivojlantirishga, jumladan, tadqiqot va ishlanmalar, tadbirkorlik va texnologiyalar tarqalishiga e'tibor qaratishi kerakligiga alohida urg'u beradi.

ITI samaradorligini oshirish uchun O'zbekiston quyidagi tavsiyalarini ko'rib chiqishi kerak:

1. Ta'lif infratuzilmasiga sarmoya kiritish: Hukumat ta'lif sifati va qulayligini oshirish uchun ta'lif infratuzilmasini yangilashga, jumladan, raqamlashtirishga sarmoya kiritishi kerak.
2. Oliy ta'lifning davomiyligi va tuzilmasini kengaytirish: O'zbekiston oliv ta'lif muddatini ko'paytirishi va uning tuzilmasini jahon andozalariga moslashtirish uchun takomillashtirishi kerak.
3. Innovatsiyalar va tadbirkorlikni rag'batlantirish: Hukumat innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun qulay muhit, jumladan, inkubatorlar, akseleratorlar va moliyalashtirish mexanizmlarini yaratishi kerak.
4. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish: Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik innovatsiyalar va texnologiyalarning tarqalishi uchun muhim ahamiyatga ega.

⁵ <https://hdr.undp.org/reports-and-publications>



Oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy ko'satkichlaridan biri yalpi o'qishga qabul qilish koeffitsienti bo'lib, bu koeffitsient oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan talabalar sonini tegishli yosh guruhidagi aholi umumiy soniga nisbatan foizda o'lchaydi. "Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda oliy ta'limga yalpi qamrab olish koeffitsienti 2019-yildagi 34,6 foizdan 2022-yilda 41,3 foizgacha oshgan (Jahon banki, 2023-yil). Mamlakatning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, qishloq joylaridan kelgan talabalar va kam ta'minlangan qatlamlardan bo'lgan talabalar uchun sa'y-harakatlarni hisobga olsak, bu o'sish hayratlanarli"⁶. Oliy ta'limni rivojlantirishning yana bir muhim jihat - ta'lim sifatidir. "O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining sifatini oshirish, jumladan, yangi o'quv dasturlarini joriy etish, infratuzilmanni modernizatsiya qilish va professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirishga katta sarmoya kiritdi. Times Higher Education World University Rankings ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning bir qancha universitetlari o'z reytinglarini sezilarli darajada yaxshilagan, O'zbekiston Milliy universiteti va O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2022-yilda dunyoning eng yaxshi 1000 ta universitetlari qatoriga kiritilgan"⁷. Shuningdek, "Jahon universitetlarining akademik reytingi - ARWU" ham o'ta muhim sanalib, uning baholanishi QS reytingiga yaqin va nufuzli reyting sanaladi. "Jahon universitetlarining akademik reytingi - ARWU" bo'yicha 2019-2024-yillarda O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarini tahlil O'zbekistondagi qaysi universitetlar ko'rsatilgan yillarda 2000 ta eng yaxshi universitetlar qatoriga kirganini va ularning tegishli reytingini ko'rib chiqamiz. (2-jadval).

2-jadval "Jahon universitetlarining akademik reytingi – ARWU" bo'yicha O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari tahlili, (top 2000talik, 2019-2024 yy)⁸

T/r	OTM nomi	Egallagan o'rni					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	O'zbekiston Milliy universiteti	1515	1465	1413	1365	1315	1261
2.	Toshkent Davlat Texnika Universiteti	1602	1555	1513	1455	1405	1349
3.	Samarqand Davlat Universiteti	1802	1702	1613	1555	1495	1447
4.	Andijon Davlat universiteti		1902	1802	1650	1586	1532
5.	Buxoro davlat universiteti			1905	1744	1671	1620
6.	Farg'ona davlat universiteti				1934	1766	1715
7.	Namangan davlat universitet					1977	1805
8.	Qarshi davlat universiteti						2000

O'zbekiston Milliy universiteti 2019-yilda 1601-o'rindan 1515-ga qadar ko'tarilgan. O'zbekistondagi eng qadimiy va eng yirik universitet sifatida O'zbekiston Milliy universiteti doimiy ravishda mamlakatdagi eng nufuzli ta'lim muassasalaridan biri sifatida o'z mavqeini saqlab kelmoqda. Shuningdek, 2019-yilda Muhandislik va texnologiyaga katta e'tibor qaratgan Toshkent Davlat Texnika Universiteti Markaziy Osiyodagi nufuzli o'quv yurti sifatida o'zini namoyon qildi. Aynan shu yilda Tarixiy Samarqand shahrida joylashgan Samarqand davlat universiteti boy madaniy merosga ega va ilmiy yutuqlari bilan kuchli obro'ga ega chiqdi, ya'ni 1802-pog'onaga chiqdi.

2020-yilda O'zbekiston Milliy universiteti O'zbekistondagi yetakchi o'quv yurti mavqeini mustahkamlab, o'z reytingini yaxshilashda davom etdi va salkam 100 ta o'rinni ortda qoldirib ilgariga intildi. Toshkent davlat texnika universiteti sifatlari ta'lim va ilmiy tadqiqot imkoniyatlarini taqdim etishda o'zining izchilligini namoyish qilib, o'z reytingini top 2000 talikda 50-ta yuqoriroq pog'onani egalladi saqlab qoldi. Samarqand davlat universiteti ham o'z reytingini 100ta yuqoriroq po'gonani egallahash orqali yaxshiladi, bu uning o'quv dasturlari va tadqiqot tashabbuslarini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini aks ettirdi. Shu yilning o'zida top 2000talik orasidan O'zbekistonning yana bir ta'lim muassasi egalladi. Andijon davlat universiteti O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining o'sishi va rivojlanishini ta'kidlab, yangi vakil sifatida kiritildi.

⁶ <https://data.worldbank.org/indicator/SE.TER.ENRL>

⁷ <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings>

⁸ <https://www.shanghairanking.com/rankings/arwu> (2019-2023 y)



2021-yilda O'zbekiston Milliy universiteti o'zining yuksalish tendentsiyasini davom ettirdi va O'zbekistondagi eng yuqori o'quv yurti mavqeini yanada mustahkamladi. Bu Toshkent davlat texnika universitetini ham o'z ortidan yetakladi. Samarqand davlat universiteti o'z reytingini yaxshiladi, bu o'zining ilmiy yutuqlarga va ilmiy innovatsiyalarga sodiqligini namoyish etdi. Andijon davlat universiteti O'zbekistondagi nufuzli o'quv yurti sifatida o'zining o'sishi va rivojlanishini ko'rsatib, reytingda ko'tarilishda davom etdi.

2022-yilda O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Samarqand davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universitetlarini shiddatli yuqori pog'onalarini egallashga hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning rivojlanishini kuzatish mumkin. Buxoro davlat universiteti o'quv dasturlari va tadqiqot tashabbuslarini oshirishga qaratilgan faoliyati samarasiz bo'lindi va yangi OTM sifatida mamlakat nufuzini yanada oshirdi.

2024-yilda O'zbekiston Milliy universiteti O'zbekistondagi yetakchi o'quv yurti mavqeini mustahkamlab, Toshkent davlat texnika universiteti yuqori sifatli ta'lim va ilmiy tadqiqotlarini yanda churqurtirish sari ildam qadam qo'yishda davom etdi, shuningdek, Samarqand davlat universiteti akademiy yuksaklikka ko'proq e'tibor berishga harakat qilishi evaziga reyting pog'onalarini yanada oldinroqqa siljishiga sabab bo'ldi. Andijon Davlat Universiteti, Buxoro davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Namangan davlat universiteti mamlakatdagi OTM larning jozibadorligini yanada oshishiga turki bo'ldi. 2024-yilda Qarshi davlat universiteti O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining kengayib borayotganini ta'kidlab, 2000-o'rin bilan debyut qildi.

ARWU reytingi bo'yicha 2019-2024-yillarda O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarini tahlili mamlakat akademik landshaftining barqaror o'sishi va yaxshilanishini ko'rsatmoqda. 2000 talikka kiruvchi universitetlar soni ortib borayotgani hukumatning O'zbekistonda ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini ko'rsatadi. Mamlakat oliy ta'lim sohasiga sarmoya kiritishda davom etar ekan, ko'proq universitetlar reytingda ko'tarilib, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi akademik yutuqlar markazi sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlashi mumkin.

"QS World University Rankings" bo'yicha O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining yillar mobaynida faoliyatini tahlil qilish orqali mamlakat akademik landshafti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. QS World University Rankings yillik nashr bo'lib, dunyo bo'ylab universitetlarni oltita ko'rsatkich asosida baholaydi: akademik obro', ish beruvchining obro'si, fakultet/talabalar nisbati, fakultetdagi iqtiboslar, xalqaro talabalar va xalqaro xodimlar.

Bu reytingning 1000 taligiga kirish uchun mamlakatimizdagi nufuzli OTMlar o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va ular orasida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti hamda O'zbekiston milliy universiteti salmoqli o'rinnegallab, har yili o'z ko'rsatkichini yanada oshirishga intiladi. Birgina 2025-yil uchun e'lon qilingan QS-reytingda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muqandislari instituti 547-o'rinni egallagan bo'lsa, O'zbekiston milliy universiteti 784-o'rinni zabit etdi⁹.

QS World University Rankings ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston oliy ta'lim tizimini takomillashtirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi, bir qancha universitetlar 1000 ta eng yaxshi jahon reytinglari qatoridan joy oldi¹⁰. Biroq, tadqiqot natijalari, ularni xalqaro miqiyosda nufuzini oshirish va innovatsiyalar nuqtai nazaridan takomillashtirish uchun hali ham imkoniyatlar mavjud. 2020-yilda O'zbekiston hukumati "Yangi O'zbekiston" rivojlanish strategiyasini ishlab chiqdi, unda ta'limga iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ustuvor ahamiyat berildi. Strategiya mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim sifatini oshirish, innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximova U.A.. Менеджмент качеством в сфере высшего образования // - Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana. T.:Tashkent 2015. - 94 bet.

⁹ <https://www.topuniversities.com/university-rankings/world-university-rankings>

¹⁰ Review.uz



2. Raximova U.A. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari. // Biznes-Ekspert jurnali. T.: Toshkent 2016. 8-son. 57 bet.
3. RaximovaU.A. Innovative methods of teaching as a means of implementing an interactive model of training in higher educational institute.// GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY jurnali. T.:India. 2017.
4. Rajabov, M. (2019). THE BENEFITS AND STRATEGIES OF USING AUDIO MATERIALS IN ENGLISH CLASSES. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY* (pp. 17-21).
5. Zaripova, S., & Chimberdiyeva, N. (2024, February). OG ‘ZAKI SO ‘ZLASH KO ‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 159-162).

